

“TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARIDAGI PAYG‘AMBARLARNING KUNYA VA LAQABLARI TAVSIFI

To‘xtasinova K. E

*FarDU, filologiya fakulteti, o‘zbek tili
yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Asardagi payg‘ambarlarga berilgan kunya va laqablarga ularning hayotiga doir hikoyatlar bilan bog‘liq holda tavsif beriladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Tarixi anbiyo va hukamo”, payg‘ambar, Odam alayhissalom, Nuh alayhissalom, Muso alayhissalom, Xatib ul-anbiyo, Fir‘avn.

Abstract

The article discusses Alisher Navoi’s work “History of prophets and rulers”. The work describes the names and nicknames given to the prophets in connection with the stories about their lives.

Key words: Alisher Navoi, “History of prophets and rulers”, prophet, Adam, Noah, Moses, Imam of the Prophets, Pharaoh.

“Tarixi anbiyo va hukamo” (“Payg‘ambarlar va hakimlar tarixi”) asari 2 bo‘limdan iborat. 1-bo‘limda Alisher Navoiy turli dinlarning payg‘ambarlari, xususan, Odam alayhissalomdan boshlab sulola tarzida jami 60 nafar payg‘ambarlar haqida qimmatli biografik ma‘lumotlar beradi. Asarning 2-bo‘limida esa hukamo-olimlar haqida kichik ibratli hikoyalar tarzida ma‘lumotlar bayon qilinadi.

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Navoiy ayrim payg‘ambarlar haqida yozar ekan, ularning hayotini yoritishdan avval laqabi va kunyasi haqida yozib ketadi. Laqab-shaxsning ko‘rinishi, qilg‘i, mashg‘uloti yoki biror xususiyatiga qarab beriladigan ikkinchi nom. Kunya esa shajarani bildiruvchi laqab bo‘lib, “abu” yoki “ibn” so‘zlari bilan beriladi. Ammo ba‘zan kunyalar ko‘chma ma’noda ham ishlatilishi mumkin. Masalan: Abu Jahl (johillik otasi) yoki Abu lahab (alangali olov otasi) kunyalari majoziy ma’noda ishlatilgan. “Tarixi anbiyo va hukamo”da ham laqab va kunyalar Payg‘ambarning ma‘lum xususiyatidan kelib chiqib qo‘yilgan.

Asarning anbiyolar haqidagi qismi, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek Odam alayhissalomning yaratilishi voqeasi bilan boshlanadi. Odam alayhissalomning kunyasi Bulbasha deb beriladi. Bulbasha so‘zi Abulbasharning qisqargan shakli bo‘lib “Bashariyat otasi” degan ma’noni anglatadi. Ma‘lumki, Odam alayhissalom Allohning ilk yaratgan insoni edi. Odam alayhissalomni Alloh loydan yaratdi. U loyning tarkibi hozirgi Makka shahri tuprog‘idandir. Tuproq Xudoning buyrug‘iga

itoat qilmaydigan maxluqotlar uchun undan foydalanishlarini xohlamay, Jabroil, Mikoil, Isrofilni qaytardi va oxiri Azroil Allohning irodasi tuproqning ont, qasamidan yuqori ekanligini ta'kidlab, yerdan bir hovuch tuproq olib ketdi. Shu yerda ko'rsatgan qat'iyati sababidan Azroil jon kirarida qilgan xizmatini to qiyomatgacha jon chiqarda ham bajaradigan bo'ldi. Odamzotning otasi tuproqdan yaraldi va shu bois ham insoniyat turli rangda ekanligi haqida ham rivoyatlar bor. "Odamga barcha nomlarni o'rgatdi" (Baqara-31). Ya'ni insoniyat uchunmning ahamiyati shunda yaqqol namoyon bo'ladi. Odamning ilmi tufayli unga hatto farishtalar sajda qildilar, zotan ular nurdan edilar, ammo ilm tuproqni nurdan-da yuksak darajaga ko'tardi. Iblis esa jinlardan bo'lib olovdan bino qilinganini aytib Odamga sajda qilmadi. Kibri, manmanligi uchun abadul-abad la'natlanishga mahkum bo'ldi: "To jazo kunigacha senga la'nat bo'lur" (Hijr-35) So'ngra uning chap qovurg'asidan Havoni yaratdi va aytdiki: "Ey odam! Jufting bilan jannatda yashang va xohlagan joyingizdan istagan yegulikni olib yeng! Faqat ushbu daraxtga yaqinlashmangiz. Aks holda zulm qiluvchilardan bo'lursiz!" (A'rof-19),-dedi. Odam sabab jannatdan quvilgan Iblis ilon yordamida jannatga kirib, Odam va Havoga ta'qiqlangan mevani yeyish vasvasasini qildi. Shunday ham bo'ldi. Bu Allohning irodasi bilan taqdir qilingan edi, Odam avlodlari yer yuzini tutishi bitilgan edi. Va ikkisi ham Jannatdan quvildilar. Yerda ular Makkada uchrashishdi. Tavba qilishdi. Odam alayhissalom Ka'bani barpo etdi. Don-dun ekishni, dehqonchilikni Jabroildan o'rgandi va yerda insoniyat ko'paya boshladi. Shuning uchun Odam alahissalom "insoniyat otasi" kunyasi bilan sharaflangan. Odam alayhissalom Safiyulloh laqabini olgan payg'ambar edi. Safiyulloh "Allohning tanlagani, Allohning saylagani" deganidir. Bu laqabning bevosita Odam alayhissalomning kunyasi bilan bog'liq jihatlari anchayin ko'zga tashlanadi. Bashariyat otasi sifatida aynan Odamni Alloh saylagani, tanlagani uchun ham U shu sifat bilan ulug'langan. Shuningdek, "Xammartu tiynati odama biyyadayya arabaina sabohan" jumalari ham nega Odam alayhissalomga bu laqab berilganini ochiqlashga xizmat qiladi, Ushbu jumlada Alloh subhanahu va taolo: "Odamning loyini qirq kun (tong) o'z qo'lim bilan qoridim",-deydi. Shuningdek Haq taolo Odamga O'z ism-sifatlarini, barcha nomlarni o'rgatganidan ham Odamning chin ma'noda Safiyulloh ekani oydinlashadi. Bu sifat boshqa manbalarda Muhammad sollallohu alayhi vasallam va Ismoil alayhissalomlarga ham tegishli ekanligi aytiladi. Chunki Muhammad sollallohu alayhi vasallam "Tarixi anbiyo va hukamo"da ham yozilganidek, "olam va odam yaratilishidan maqsad buning yaratilishidurkim, oxirzamon payg'ambari bo'lg'usidir", ya'ni butun insoniyat va olam Muhammad sollallohu alayhi vasallam yaratilishi uchun yaratildi. Alloh tanlagan payg'ambarlar sayyidi bo'lgani tufayli ham bu sifat Muhammad sollallohu alayhi vasallamga nisbatan ham ishlatiladi. Ismoil alayhissalom ham tanlanganlardan edi, chunki Is'hoq alayhissalom tug'ilganda Alloh Ibrohim alayhissalomga uning naslidan 1000 payg'ambar tug'ilajakligini bildiradi.

Ibrohim alayhissalom Allohga iltijo qilib, Ismoilni ham maxsus inoyat bilan sharaflashini so'raydi. Shunda Alloh taolo Muhammad sollallohu alayhi vasallam aynan Ismoil alayhissalom naslidan bo'lishi xushxabarini yetkizadi. Bundan tashqari, Ismoil alayhissalomni Alloh taolo qurbonlik uchun ham tanlaydi. Yosh, shuning bilan birga otasining keksalikda topgan "qur'at ul-ayni-ko'z qorachig'i" bo'lgan Ismoil hech qanday vasvasaga qaramay Alloh uchun jonini qurbon qilishga tayyor turadi, ammo Alloh uning sidqi uchun Jabroil orqali jannatdan bir qo'chqor jo'natadi. Ibrohim alayhissalomni qo'chqorni qurbonlikka so'yadi. Bu ota va o'g'ilning iymon sinovi edi. Ismoil alayhissalom esa Safiyulloh ekanini yana bir bor isbotladi. Ammo Navoiy o'z asarida bu sifatni faqat Odam alayhissalomga nisbatan ishlatadi.

"Tarixi anbiyo va hukamo" asarida barcha payg'ambarlarga ham laqab yoki kunya berilmagani haqida yuqorida aytilgan edi. Odam alayhissalomdan so'ngra Alisher Navoiy Nuh alayhissalom haqidagi bobda uning laqabini Baxiyulloh (Najiyulloh) deb beradi. Nuh alayhissalom to'liq ismi Nuh ibni Malik ibni Matushlah ibni Idris, mursal payg'ambardir. Asarda yozilishicha, qirq yoki ellik yoshidan keyin unga vahiy kela boshlagan. To'qqiz yuz ellik yil o'z elini butparastlikdan qaytarib dinga da'vat qiladi, ammo sakson kishigina unga ergashadi. Zulumlardan bezor bo'lgach Allohga munojot qildiki: "Ey Egam, yer yuzida kofirlardan birorta yurarmanni qoldirmagin" (Nuh-26). Duosi ijobat bo'lib, Alloh Jabroil alayhissalom orqali bir nihol jo'natdi. U daraxt bo'lib kattargach esa Alloh uni kesib kema yasamoqni amr qildi. Kema bitgach Alloh irodasi bilan yer-u osmondan suv chiqib to'fon boshlandi. Kemaga iymon keltirgan insonlar, hayvonlar va qushlar mindi. Yer yuzida Nuh alayhissalom so'raganidek, "kofirlardan birorta yurarman" qolmadi. Nuh alayhissalomning laqabini voqealardan kelib chiqqan holda quyidagicha izohlash mumkin. Baxiyulloh-hayot baxsh etuvchi, muhtojlarga yordam beruvchi. To'fondan insoniyatni Alloh irodasi bilan asrab qolgani va ularga qayta hayot baxsh etgani uchun Nuh alayhissalom shu laqab bilan sifatlangan. Najiyulloh esa "Allohning do'sti, Allohning yaqini" degan ma'nolarni anglatadi. Payg'ambarlar xossatan barchalari Allohga yaqin zotlardir.

Shuningdek, Navoiy Muso alayhissalom zikrida Muso Kalimullohdir, deydi. Muso alayhissalom Fir'avnni iymonga chaqirgan payg'ambardir. Fir'avn Isroil xalqining barcha o'g'il bola chaqaloqlarini ko'rgan dahshatli tushi sabab o'ldira boshlagan pallada Muso alayhissalom tug'iladi. Musoning onasi uni yashirib bir tobutga solib suvga tashladi. Alloh fazliga topshirdi. Fir'avnning bir qizi og'ir xasta edi. Hech kim davo berolmay yurgan paytida Nildan oqib kelgan sandiqdagi chaqaloq so'lagi u dardni ketkazadi. Bolani Fir'avn va xotini Osiyo boqib oladilar. Bu Muso edi. Fir'avn u o'zini halok qiladigan go'dak ekanini bilsa ham Alloh rahmati bilan Musoni saroyida ulg'aytiraveradi. Muso alayhissalomga vaqti kelib vahiy nozil bo'ldi. Muso alayhissalom u payt Tur tog'ida edi. Nido keldi: "Inni analloh" (Ey Muso, men barcha

olamlarning egasi-Allohdriman. Qasos-30). Shunday qilib Musoga paygʻambarlik rutbasi berildi. Muso alayhissalomning laqabini izohlash uchun shu yergacha voqealar kifoya qiladi. Kalimulloh-Allohning suhbatdoshi, Alloh bilan soʻzlashgan. Paygʻambarlarning barchasi Alloh bilan muloqot qilgan, albatta. Lekin ular vahiy orqali, Jabroil alayhissalom vositasida soʻzlashishgan. Muso alayhissalom esa bevosita Alloh taoloning Oʻzi bilan muloqotda boʻlgan. Shu bois ham bu laqab aynan Muso alayhissalomga tegishli. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida yuqoridagi zikri keltirilgan paygʻambarlardan tashqari ham laqab va kunya bilan sifatlangan paygʻambarlar mavjud. Masalan, Ibrohim alayhissalom Xolilulloh, Ayyub alayhissalom Sabur, Shuʻayb alayhissalom Xatib ul-anbiyo laqablari bilan tilga olinadi.

Asardagi har bir paygʻambarlarga berilgan kunya va laqablar oʻsha paygʻambarning hayot yoʻliga, burchiga, yaratilish hikmatiga, yelkasidagi masʼuliyatidan tortib Alloh oldidagi darajasiga ham ishora qilgan. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida zikr qilingan paygʻambarlarning hayoti, ular bilan sodir boʻlgan voqea va karomatlar tarixiy haqiqatlar bilan sugʻorilgan badiiylik mahsulidir. Har sahifa, har bayti insonlar uchun ibrat maktabi boʻla olish darajasidagi hikmatlar bilan toʻldirilgan bu asar Navoiy davridan to shu kungacha asrlar toʻzonida toʻkilmay kelishining sabablaridan biri ham aynan shu. Kitobni har ochganda har gal oʻzgacha maʼnolar, qimmatli hikmatlar kashf etish esa Navoiyga xos mahorat qirrasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Alisher Navoiy. Toʻla asarlar toʻplami, 8-jild. Tarixi anbiyo va hukamo.
2. Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
3. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Samarqand: 1990.
4. Muhammad Sayyid Tantoviy. Paygʻambarlar tarixi. –Toshkent: Matbaachi, 2023.
5. Alisher Navoiy asarlarining izohli lugʻati, IV tom. –Toshkent: Fan, 1983.